



Methods of utilizing corpus pragmatics in linguistic analysis

Gulzoda YULDASHEVA¹

Namangan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025

Received in revised form

10 August 2025

Accepted 25 August 2025

Available online

15 September 2025

Keywords:

corpus pragmatic analysis,
corpus linguistics,
pragmatics,
linguistic analysis,
speech acts,
discourse markers.

ABSTRACT

Corpus pragmatics is an integrated field formed by the convergence of two modern linguistic disciplines: corpus linguistics and pragmatics. Although it is a relatively new area of research, it has already established its theoretical foundations, methodology, and analytical methods. This article is devoted to studying the application of corpus-pragmatic research methods in linguistic analysis. Initially, the theories and methodologies of pragmatics and corpus linguistics are thoroughly examined. Subsequently, the emergence of corpus pragmatics as an intersection of these two fields, its theoretical basis, methodology, application in linguistic research, and outcomes are discussed in detail. Furthermore, achievements in this field within global linguistics and Uzbek linguistics are analyzed. The research results demonstrate that corpus pragmatics serves as an effective tool for understanding practical language use, studying speech acts, discourse markers, and other pragmatic phenomena

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss7/S-pp61-68>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Lingvistik tahlillarda korpus pragmatikasidan foydalanish usullari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

korpus pragmatik tahlil,
korpus tilshunoslik,
pragmatika,
lingvistik tahlil,
nutq aktlari,
diskurs markerlari.

Korpus pragmatikasi tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari hisoblanuvchi korpus tilshunoslik hamda pragmatika sohalarining integratsiyasidan tashkil topgan bo'lib, ancha yangi soha bo'lishiga qaramasdan o'zining nazariy asoslari, metodologiyasi, tahlil usullariga ega bo'lib ulgurdi. Ushbu maqola korpus pragmatik tadqiqotlarning lingvistik

¹ PhD student, Namangan State Institute of Foreign Languages. E-mail: gulzoday@inbox.ru

tahlillarda foydalanish usullarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, dastlab pragmatika va korpus tilshunoslik sohalari nazariyalari, metodologiyasi batafsil yoritiladi, so'ng ikkala sohaning kesishmasi bo'lgan korpus pragmatikasining paydo bo'lishi, nazariy asoslari, metodologiyasi, lingvistik tadqiqotlarda qanday qo'llanilishi va qanday natijalar berishi batafsil yoritiladi. Shuningdek, jahon tilshunosligida va o'zbek tilshunosligida ushbu sohada erishilgan natijalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korpus pragmatikasi tilning amalda qo'llanilishini tushunish, nutq aktlari, diskurs markerlari va boshqa pragmatik hodisalarni o'rganishda samarali vosita hisoblanadi.

Методы использования корпусной прагматики в лингвистическом анализе

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Корпусный
прагматический анализ,
корпусная лингвистика,
прагматика,
лингвистический анализ,
речевые акты,
дискурсивные маркеры.

Корпусная прагматика представляет собой интегрированное направление, сформировавшееся на стыке двух современных лингвистических дисциплин – корпусной лингвистики и прагматики. Несмотря на то, что это достаточно новая область исследований, она уже успела сформировать свои теоретические основы, методологию и методы анализа. Данная статья посвящена изучению методов использования корпусно-прагматических исследований в лингвистическом анализе. Вначале подробно освещаются теории и методологии прагматики и корпусной лингвистики. Затем подробно рассматривается возникновение корпусной прагматики как области пересечения этих двух дисциплин, ее теоретические основы, методология, применение в лингвистических исследованиях и получаемые результаты. Кроме того, анализируются достижения в этой области в мировой и узбекской лингвистике. Результаты исследования показывают, что корпусная прагматика является эффективным инструментом для понимания практического использования языка, изучения речевых актов, дискурсивных маркеров и других прагматических явлений.

KIRISH

Bugungi zamonaviy dunyoda yangi texnika-texnologiyalarning kashf etilishi barcha sohalarda, shu jumladan, ilm-fanda ham yangi marralarni zabt etilishiga turtki bo'ldi. Tilshunoslik fanining o'zi rivojlanishi bilan bir qatorda uning tadqiqot usullari ham doimiy takomillashib bormoqda. So'nggi yillarda korpus lingvistikasi tilshunoslikning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib ulgurdi. Korpus pragmatikasi esa bu pragmatik tadqiqotlarda korpus lingvistikasi tadqiqot usullaridan foydalanuvchi sohadir. Korpus pragmatikasi haqida so'z yuritishdan avval korpus tilshunoslik va pragmatika sohalariga aniqlik kiritilishi lozim. "Korpus" so'zi ingliz tilidagi lug'atlarda "a large

collection of written or spoken language, that is used for studying the language”; “a large amount of written and sometimes spoken material collected to show the state of a language”, ya’ni “tilni o’rganish maqsadida foydalanish uchun yig’ilgan katta hajmli og’zaki va yozma matnlar to’plami”; “tilning holatini aks ettirish maqsadida to’plangan katta hajmli og’zaki va yozma matnlar to’plami” [1] kabi izohlanadi. Ushbu izohlarda kelib chiqib korpus tilshunoslik sohasining asosi katta hajmli matnlarning elektron yig’indisi ekanligini va tadqiqotlar mana shu matnlar ustida olib borilishi mumkinligini anglashimiz mumkin. Lingvistik adabiyotlarda korpus lingvistikasiga quyidagicha ta’riflar beriladi: tilni tahlil qilishning ko’p qirrali usuli bo’lib, uni grammatikani o’rganishda [2]; diskurs tahlillarida [3]; shuningdek, til o’rganish va o’qitishda [4] qo’llash mumkin. Hozirgi kunda korpus tahlillari natijalaridan yuqoridagi sohalaridan tashqari tilning turli sathlarida amalga oshiriluvchi ilmiy izlanishlarda foydalanib kelinadi. McEnery hamda Hardie korpus tilshunoslikka empirik tadqiqot an’anasiga amal qiladigan ilmiy yondashuv sifatida qarab, “ma’lumotlarni to’plash va ularni talqin qilishga e’tibor qaratuvchi tadqiqot” [5] deya ta’riflashadi. Pragmatika so’zi yunoncha “pragma” so’zidan olingan bo’lib, “harakat”, “amal” degan ma’nolarni anglatadi. Nazariy jihatdan, lingvopragmatikaning asosini J. Austin, H.P. Grice, S. Levinson [6] kabi olimlarning nazariyalari tashkil etadi. Austinning nazariyasi nutq aktlariga bag’ishlangan bo’lib, nutq aktlari bu inson nutq faoliyati orqali nafaqat ma’lumot yetkazishi balki u orqali buyruq berish, so’rash, va’da berish, uzr so’rash, ogohlantirish kabi ijtimoiy-nutqiy harakatlarini amalga oshira olishidir. Austinning o’zining “How to do things with words” kitobida lokutsiyaviy, illokutsiyaviy, perlokutsiyaviy nutq aktlari tushuntirib beriladi: “lokutsiyaviy akt nutqning asl ma’nosi ya’ni nima deyilayotgani, illokutsiyaviy akt esa so’zlovchining ko’zlagan ma’nosi, perlokutsiyaviy akt esa tinglovchida yuzaga keladigan ta’sir yoki natija hisoblanadi” [7]. Ushbu nutq aktlari nazariyasiga tayanib, til orqali ifodalanayotgan gaplar orqali nafaqat xabar yetkazilishi, balki nutq egasining ma’lum maqsadi ham ifodalanishi, shuningdek, tinglovchida ham natija qoldirishini aniqlashimiz mumkin. Pragmatikada muhim burilishlarga sabab bo’lgan, odamlar samarali muloqot qila olishlari uchun 4 ta asosiy qoidalar asosida hamkorlik tamoyilini [8] Grice ishlab chiqqan bo’lib, uning muhim jihati implikatura tushunchasidir. Nutqda bevosita aytilmagan, lekin kontekst, muloqot qoidalari yoki umumiy bilimlar asosida anglashiladigan yashirin ma’no implikatura hisoblanadi. Lingvopragmatik tahlilda yana bir muhim tushuncha Fanga Levinson tomonidan kiritilgan deysis (deixis) [9] tushunchasi bo’lib, ushbu tushuncha kontekstga bog’liq til birliklarini anglatadi. Deyktik birliklarning ma’no – mazmuni faqat nutq joyi, vaqt, shaxslar yoki mavjud vaziyat bilan bog’liq holdagina tushuniladi: misol uchun “Yuqorida kelishganimizdek, men sen bilan ertaga o’sha yerda xonimning ruxsati bilan ko’rishamiz” gapida shaxs deysisi hisoblangan *men, sen*, ijtimoiy deysis *xonimni* kimligini, diskurs deysisi *yuqorida kelishilganni* nimaligini, joy deysisi *o’sha yerdani* qayerligini, vaqt deysisi *ertagani* qachonligini faqatgina kontekst yordamida bilishimiz mumkin. Shu o’rinda kontekst atamasi izohlab o’tilishi lozim, kontekst nutq sharoiti, ya’ni vaqt, joy, shaxslar, madaniy jihatlar kabi lingvistik bo’lmagan omillarni o’z ichiga olsa, ko’tekst atamasi lingvistik muhit ya’ni matnni o’zi bilan chegaralanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Clancy hamda O’Keeffening ta’biri bilan aytganda, korpus pragmatikasi korpus tahlillaridan foydalanuvchi boshqa sohalariga nisbatan ancha yangi tushuncha [9]. Chunki korpus tahlillari odatda statistik tahlillarga asoslanib, ko’pincha yig’ilgan matnlardagi ma’lum bir so’zning qo’llanilish chastotasi, kollokatsiyasi kabi xususiyatlariga e’tibor

qaratilar edi. Vaholanki, pragmatika tilni u ishlatilgan vaziyatda, ya'ni kontekstda qo'llanilishi, nutq egasining nafaqat xabar berish, balki so'zlovchining ko'zlagan maqsadi, nutq ishtirokchilariga bo'lgan ta'siri, kontekst, kontekstning ahamiyati va boshqalar bilan shug'ullanadi. Korpusning yana bir foydali jihati shuki, odatda korpusdagi matnlarda ularning egalari, nutq egalarining vaziyatlari haqida ham ma'lumotlar teglanadi. Shunda alohida ajratib olingan nutqning konteksti haqida ma'lumot olish imkoniyati bo'ladi. Korpus pragmatikasi endi o'zining tamoyillari, tadqiqot usullarini ishlab chiqayotgan soha bo'lishiga qaramay, McCarthy and O'Keefelarning fikriga ko'ra, ushbu sohaning ildizlari XIII asrlarga borib taqaladi [10].

Hozirgacha jahon tilshunosligida korpus pragmatik tadqiqotlar bo'yicha qator izlanishlar olib borilgan bo'lib, Clancy va O'Keefe korpus pragmatik tahlillarda foydalanish uchun ikki yondashuv: shakldan-vazifaga (form to function) va vazifadan shaklga (function to form)ni qanday qilib qo'llash mumkinligini Amerika zamonaviy ingliz tili korpusi (COCA) orqali misollar bilan ko'rsatib berishadi [11]; Christoph Rühlemann and Brian Clancy esa ingliz tilidagi "as if" ning qo'llanilishini korpus pragmatik usullar yordamida tahlil qilishni yoritib berishadi [12]. Bir guruh rus tadqiqotchilari ingliz tilidagi tasdiq so'roq gaplarni og'zaki diskursda korpus tahlillari va pragmatik tahlillar orqali o'rganishadi [13]: dastlab ular korpusdan dialoglar va tasdiq so'roq gaplardan iborat, so'ng miqdor ko'rsatkichlarni aniqlashadi: ularning chastotasi, grammatik namoyon bo'lishi, kerakli materialni tanlab olishadi. Ular olib borgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz tili og'zaki nutqda eng ko'p qo'llaniluvchi tasdiq so'roq gap "isn't it" iborasi ekan.

Sohada pragmatik tamoyillar korpus tahlillari orqali aniqlashtiriladi. Korpus pragmatikasida foydalanish mumkin bo'lgan ikkita asosiy yondashuv borasida Clancy va O'Keefening korpus pragmatikasi deb nomlangan bo'limida jadval ko'rinishida ochib berilgan [14]. Quyida ushbu jadvalni o'zbek tiliga tarjimasini keltirib o'tamiz:

1-jadval

Clancy va O'Keefening [15] korpus pragmatikasi metodologiyasi

Korpus pragmatikasi	
Korpus tilshunoslik	Pragmatika
Shakldan vazifaga yondashuvi	Vazifadan shaklga yondashuvi
1. So'zlar chastotalari, kalit so'zlar va konkordanslar orqali shakllarga e'tibor beriladi.	1. Tadqiqot savoliga aloqador bo'lgan bironta topshiriq tanlanadi.
2. Tadqiqot savoliga aloqador bo'lgan shakllar aniqlanadi.	2. Tadqiqot ishtirokchilariga topshiriq tayyorlanadi.
3. Mavjud kontekstual ma'lumotlardan foydalanib yaqqol shakllarni keltirib chiqariladi.	3. Ushbu vazifaga aloqadorlikda paydo bo'lgan shakllarni aniqlash uchun to'plangan ma'lumot tahlil qilinadi.

Ushbu jadvalda berilgan metodologiyalarni tadqiqot maqsadi, vazifalariga qarab tanlash mumkin. Agar shakldan-vazifaga, ya'ni form to function yondashuvi bo'yicha ishlansa, dastlab, korpus asosida ma'lum shaklning statistik, lingvistik tahlillari olinadi, tadqiqot muammosiga oid tomonlari ajratiladi. Aksincha, function to form yondashuvidan foydalanilsa, dastlab tadqiqot muammosidan kelib chiqib, so'ngida esa shakllar bilan ishlanadi.

Korpus pragmatik tadqiqotlar haqida ajoyib qo'llanma hisoblanuvchi "Korpus Pragmatics" [16] kitobida mualliflar sohadagi barcha qiyinchiliklarni tasvirlash bilan bir qatorda uning afzalliklarini quyidagicha keltirishadi:

- Takrorlanuvchi lingvistik modellarni aniqlash imkoniyati
- Tizimli tarzda ifodalanuvchi namunalarni baholash imkoniyati
- Topilgan ma'lumotlarni umumlashtirish imkoniyati
- Korpus ma'lumotlari boshqa tadqiqotchilar uchun ham ochiq bo'lgan darajada batafsil berilsa, korpuslar asosida natijalarni tekshirish va takrorlash mumkin
- Yaxshi metodologiyadan foydalanish orqali maksimal darajada shaffoflikka erishish mumkin.

O'zbekistonlik olimlar ham korpus lingvistikasi sohasida bir qator tadqiqotlar olib bormoqda. A. Gatiatullin, N. Abduraxmonova, Suleymanov, Sadikova[17]larning ilmiy izlanishlari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonlik olimlarning korpus pragmatikasi sohasidagi tadqiqotlari hali boshlang'ich bosqichida bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu sohaga qiziqish ortib bormoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotimizda korpus lingvistikasi hamda pragmatika sohalariga oid ilmiy adabiyotlar hamda yangi yo'nalish hisoblangan korpus pragmatikasiga oid manbalar ResearchGate, Springer Nature kabi ma'lumotlar bazalari, Cambridge University Press nashriyoti manbalari orqali kontent tahlil usulida o'rganildi, an'anaviy pragmatik usullar va korpus pragmatik tahlil usullarining o'xshash va farqli jihatlari qiyoslandi. Tanlangan manbalar ilmiy jihatdan ishonchli manbalarda nashr qilingan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Korpus pragmatikasi sohasidagi tadqiqotlar asosan quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

2-jadval

Tadqiqot yo'nalishlari

Nutq aktlari tadqiqoti	Diskurs markerlari tadqiqoti	Pragmatik hodisalarning tarqalishi
Korpuslar yordamida turli nutq aktlari (savol, buyruq, va'da, tahdid va boshqalar)ning qanday ifodalanishi va qanday tarqalishi o'rganiladi.	Diskurs markerlari nutqning mantiqiy tuzilishini ko'rsatuvchi lingvistik vositalar hisoblanadi. Korpuslar yordamida ularning turli kontekstlarda qanday qo'llanilishi o'rganiladi.	Korpuslar yordamida turli pragmatik hodisalarning turli nutq janrlarida qanday tarqalganligi o'rganiladi.

An'anaviy pragmatik tahlil usullariga ko'ra, pragmatik tadqiqotlarda diskursni amaliy kuzatish orqali o'rganilgan bo'lsa, korpus pragmatikasi tadqiqotlari asosan empirik xarakterga ega bo'lib, ular katta hajmdagi matnli ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslanadi.

Korpus pragmatik tahlil ketma-ketligi

I Korpuslarni tanlash va yig'ish	Korpuslar turlicha bo'lib, tadqiqot uchun mos bo'lgan tayyor korpus tanlanadi, yoki yangi korpus tuziladi.
II Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish	1. Matnlarni tozalashda ulardagi formatlash belgilarini va boshqa keraksiz elementlarni olib tashlanadi. 2. Matnlarni annotatsiya qilishda ularga lingvistik ma'lumotlar qo'shiladi va tadqiqot zaruriyatidan kelib chiqib ular morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik annotatsiyalar bo'lishi mumkin. 3. Matnlarni razmetka qilishda ularni turli belgilar yordamida masalan, nutq aktlarini, diskurs markerlarini va boshqa pragmatik hodisalarni belgilanadi.
III Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun turli statistik va lingvistik usullar qo'llash	1. Kollokatsiya tahlili orqali so'zlarning bir-biri bilan qanday bog'lanishini o'rganiladi (Nutq aktlari, diskurs markerlari va boshqa pragmatik hodisalarni o'rganish mumkin) 2. Konkordans tahlili orqali so'z yoki iboralarning turli kontekstlarda qanday qo'llanilishini o'rganiladi. (Pragmatik hodisalarning turli kontekstlarda qanday ifodalanishini o'rganish mumkin) 3. Statistik tahlil yordamida turli lingvistik hodisalarning chastotasi, tarqalishi va boshqa statistik ko'rsatkichlari hisoblanadi. (Pragmatik hodisalarning chastotasi, tarqalishi va boshqa statistik ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin)

Korpuslar turli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: Umumiy korpuslar – tilning umumiy xususiyatlarini o'rganish uchun mo'ljallangan korpuslar bo'lib, ular turli janr va sohalardan olingan matnlarni o'z ichiga oladi; ixtisoslashtirilgan korpuslar – ma'lum bir soha, janr yoki muammoni o'rganish uchun mo'ljallangan korpuslar; parallel korpuslar – bir tilga oid matnlar va ularning boshqa tillarga tarjimalarini o'z ichiga olgan korpuslar; diaxronik korpuslar – tilning vaqt o'tishi bilan o'zgarishini o'rganish uchun mo'ljallangan korpuslar hisoblanib, ular turli davrlarga oid matnlarni o'z ichiga oladi. Korpuslar yig'ishda matnlarning turli janr va sohalardan olinishi, korpusning hajmi va sifatini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

Jahon tilshunosligida lingvistik jihatdan annotatsiyalangan korpuslar juda ko'p bo'lib, aynan pragmatik annotatsiyalangan korpuslar soni ham ortib bormoqda. Ruhlemann, Aijmer, Weisser kabi tadqiqotchilar nutq aktlari bo'yicha, pragmatik markerlari bo'yicha, qatnashuvchilar roli annotatsiyalangan va xushmuomalalik kriteriyasi bo'yicha annotatsiyalangan korpuslarni misol qilib keltirishadi [18].

O'zbek tilshunosligida esa korpus pragmatikasi tadqiqotlari hali boshlang'ich bosqichida bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu sohaga asos bo'lib xizmat qiluvchi bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, O'zbek tili korpusining yaratilishi. Shuningdek, yana qator izlanishlar o'zbek tili korpuslarini lingvistik teglash borasida olib borilmoqda.

XULOSA

Korpus pragmatikasi lingvistik tahlillarning zamonaviy usuli bo'lib, u tilning pragmatik jihatlarini katta hajmdagi matnli ma'lumotlar asosida o'rganishga imkon beradi. Korpus pragmatikasi usullari yordamida nutq aktlari, diskurs markerlari va boshqa pragmatik hodisalarni chuqurroq tushunish mumkin. Jahon tilshunosligida ushbu soha o'zining kuchli ildizlariga ega bo'lib ulgurdi, deya olamiz. 2017-yildan beri nashr qilinuvchi

Journal Corpus Pragmatics [19] ilmiy jurnalining faoliyati, ulardagi tadqiqot natijalari buning yaqqol misolidir. Ushbu jurnalga Journal Pragmatics ilmiy jurnalining 40 yilligi arafasida asos solinib, pragmatika sohasida korpus tahlillarini integratsiyalovchi tadqiqotlarni nashr etib keladi. O'zbek tilshunosligida korpus pragmatikasi tadqiqotlari hali boshlang'ich bosqichida bo'lsa-da, so'nggi yillarda bu sohada bir qator muhim tadqiqotlar amalga oshirildi, jumladan o'zbek tili korpusi [20] yaratildi.

Korpus pragmatikasi hali navqiron soha bo'lganligi uchun ham uning bir qator munozaraga sabab bo'luvchi xususiyatlari ham mavjud. Misol uchun, korpus materiallarini pragmatik annotatsiyalash juda uzoq vaqt va mehnat talab etadi, ba'zi bir tahlillarda noaniqliklar yuzaga keladi, chunki pragmatik tadqiqotlar miqdoriy jihatlariga emas ko'proq sifatga e'tibor beradi.

Ushbu muammolarni oldini olish maqsadida kelajakda korpus pragmatikasi sohasida korpus pragmatikasi usullarini takomillashtirish va ularni turli lingvistik tadqiqotlarda qo'llash; pragmatik annotatsiya tizimini ishlab chiqish; kross-kultural ya'ni o'zbek tilini boshqa tillar bilan solishtirib, pragmatik yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq. Korpus pragmatikasi lingvistik tadqiqotlarning yangi yo'nalishi bo'lib, u tilshunoslikka yangi imkoniyatlar va istiqbollarni beradi: korpus pragmatikasi usullarini o'rganish va qo'llash orqali tilning pragmatik jihatlarini chuqurroq tushunish va turli lingvistik muammolarni hal qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Corpus" Longman Dictionary of Contemporary English 5th edition; "corpus" Cambridge International Dictionary of English. - Cambridge University Press, 2008.
2. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. (1999). Longman Grammar of Spoken and Written English. Harlow: Pearson Education.
3. Baker, C. (2006). Foundations of Bilingual Education and Bilingualism (4th ed.). Clevedon: Multilingual Matters.
4. Aijmer, K. (2009). Seem and evidentiality. *Functions of Language*, 16(1), 63–88. <https://doi.org/10.1075/fol.16.1.05aij>
5. McEnery, T., & Hardie, A. (2011). *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Austin, J. L. (1962). *How to do things with words*. Oxford Clarendon Press; Grice, H. P. (1975). *Logic and conversation*. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics 3* (pp. 41–58). Academic Press; Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.
7. Austin, J. L. (1962). *How to do things with words*. Oxford Clarendon Press.
8. Grice, H. P. (1975). *Logic and conversation*. In P. Cole & J. Morgan (Eds.), *Syntax and semantics 3* (pp. 41–58). Academic Press.
9. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.
10. Clancy, B., & O'Keeffe, A. (2018). Corpus pragmatics. In C. Ilie & N. R. Norrick (Eds.), *Pragmatics and its interfaces* (pp. 233–256). John Benjamins. <https://doi.org/10.1075/pbns.294.11>
11. McCarthy, M. J., & O'Keeffe, A. (Eds.). (2010). *The Routledge Handbook of Corpus Linguistics*. Abingdon, Oxon: Routledge. ISBN: 978-0-415-46489-5 (hbk)
12. Clancy, B., & O'Keeffe, A. (2018). Corpus pragmatics. In C. Ilie & N. R. Norrick (Eds.), *Pragmatics and its interfaces* (pp. 233–256). John Benjamins. <https://doi.org/10.1075/pbns.294.11>

13. Rühlemann, C., & Clancy, B. (2018). Corpus linguistics and pragmatics. In C. Ilie & N. R. Norrick (Eds.), *Pragmatics and its interfaces* (pp. 239–268). John Benjamins Publishing Company. <https://doi.org/10.1075/pbns.294.11>
14. Kochetova L.A., Ilyinova E.Yu., Klepikova T.A. Tag Questions in English Spoken Discourse: Corpus- Based Linguistic and Pragmatic Analysis. *Vestnik Volgogradskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya 2. Yazykoznanie [Science Journal of Volgograd State University. Linguistics]*, 2021, vol. 20, no. 5, pp. 67-86. (in Russian). DOI: <https://doi.org/10.15688/jvolsu2.2021.5.6>
15. Clancy, B., & O’Keeffe, A. (2018). Corpus pragmatics. In C. Ilie & N. R. Norrick (Eds.), *Pragmatics and its interfaces* (pp. 233–256). John Benjamins. <https://doi.org/10.1075/pbns.294.11> p 48.
16. Clancy, B., & O’Keeffe, A. (2018). Corpus pragmatics. In C. Ilie & N. R. Norrick (Eds.), *Pragmatics and its interfaces* (pp. 233–256). John Benjamins. <https://doi.org/10.1075/pbns.294.11> p 48.
17. Landert D, Dayter D, Messerli T, Locher M. A. 2023 *Corpus Pragmatics*. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781009091107>
18. Gatiatullin A., Abduraxmonova N. O‘zbek tilining lingvistik ma’lumotlar bazasini shakllantirishda “Turkiy morfema” portali instrument sifatida / O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 2020, 20-oktabr Nilufar; Suleymanov D., Gatiatullin A., Prokopyev N., Abdurakhmonova N.Z. *Turkic Morpheme Web Portal as a Platform for Turkology Research / International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT 2020 (Indexing Scopus) Applications, Trends and Opportunities 4th, 5th and 6th of November 2020, Tashkent Uzbekistan* <https://ieeexplore.ieee.org/document/9351500>; Abduraxmonova N., Sadikova M. *Korpus lingvistikasida matnlarni lingvistik annotatsiyalash tamoyillari / “Ilm-fan ta’limining rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy konferensiya, Toshkent, 2020-yil 27-aprel, - B. 332-336*
19. Rühlemann, C., & Aijmer, K. (Eds.). (2015). *Corpus Pragmatics: A Handbook*. Cambridge: Cambridge University Press.; Weisser, M. (2015). *Practical Corpus Linguistics: An Introduction to Corpus-Based Language Analysis*. Malden, MA: Wiley-Blackwell.
21. *Corpus Pragmatics*. (2017). <https://link.springer.com/journal/41701>
22. <https://uzbekcorpus.uz/>